



Toshkent viloyati statistika boshqarmasi

2019 yilning yanvar- oktabr oylarida QURILISH ISHLARI

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -
3653,8 mlrd. so`m

Yirik qurilish tashkilotlari
ulushi – **20,6 %**

Kichik tashkilotlar va
mikrofirmalar ulushi
– **55,3 %**

Norasmiy sektor
ulushi – **24,1 %**

Toshkent viloyatida qurilish faoliyati investitsiya kiritilishining jozibador yo`nalishlaridan biri va iqtisodiyotining ahamiyatli tarmog`i hisoblanadi. Joriy yilning yanvar- oktabr oylarida Toshkent viloyatida jami **3653,8 mlrd.so`m** qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`sish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **137,4 %**ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **753,0 mlrd.so`m** qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **20,6 %**ni, hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **142,3 %**ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **55,3 %**i yoki **2021,5 mlrd.so`m** to`g`ri keldi va o`tgan yilning mos davriga nisbatan **157,6 %**ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa **24,1 %** yoki **879,3 mlrd.so`m** to`g`ri keldi hamda o`tgan yilning mos davriga nisbatan **103,5 %**ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari

- hajmi - **753,0 mlrd.so`m**
- o`sish sur`ati - **142,3 %**
- ulushi - **20,6 %**



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- hajmi - **2021,5 mlrd.so`m**
- o`sish sur`ati - **157,6 %**
- ulushi - **55,3 %**



Norasmiy sektor

- hajmi - **879,3 mlrd.so`m**
- o`sish sur`ati - **103,5 %**
- ulushi - **24,1 %**

Iqtisodiy faoliyat bo'yicha qurilish ishlari, mlrd.so`m



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida **71,5 %**ni tashkil etdi.





Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda **12,9 %** ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,2 %** punktga ko'paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa **15,6 %** to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga kamaydi.



**Yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlaring
faoliyat turlari bo`yicha tarkibi, % da**



2019 yilning yanvar- oktabr oylarida faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi **21,4 %** ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **0,8 %** ga ko`paydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi **44,9 %** va norasmiy sektorning ulushi **33,7 %** ni (**10,6 %** ga kamayish) tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo`yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **34,4 %**ni (**5,1** punktga kamayish) tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **65,6 %**ni (**5,1** punktga ko`paydi) tashkil etdi


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi, umumiy hajmga nisbatan **5,6 %**ni (**4,0** punktga ko`paydi) tashkil etdi. Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **94,4 %**ni (**4,0** punktga kamayish) tashkil etdi.

Xududlar kesimida qurilish ishlari hajmi

(2019 yil yanvar- oktabr oylarida)

	Jami		
	Bajarilgan qurilish ishlari hajmi (mlrd.so'm)	2018 yil yanvar- oktabr ga nisbatan % da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi % da
Toshkent viloyati	3653,8	137,4	100
Nurafshon shahri	144,9	148,9	4,0
Olmaliq shahri	189,8	133,6	5,2
Angren shahri	155,9	143,6	4,3
Bekobod shahri	169,9	140,2	4,6
Ohangaron shahri	119,4	153,5	3,3
Chirchiq shahri	190,5	155,3	5,2
Yangiyo'l shahri	82,1	128,4	2,2
Oqqa'rg'on tumani	96,1	140,8	2,6
Ohangaron tumani	86,7	115,9	2,4
Bekobod tumani	112,7	138,0	3,1
Bo'stonliq tumani	213,5	150,1	5,8
Bo'ka tumani	79,2	142,9	2,2
Quyichirchiq tumani	72,9	149,2	2,0
Zangiota tumani	492,4	127,5	13,5
Yuqorichirchiq tumani	256,8	132,3	7,0
Qibray tumani	280,8	150,9	7,7
Parkent tumani	204,0	141,5	5,6
Piskent tumani	84,3	144,5	2,4
O'rtachirchiq tumani	188,0	118,1	5,1
Chinoz tumani	103,3	134,9	2,8
Yangiyo'l tumani	136,9	165,5	3,7
Toshkent tumani	193,7	116,4	5,3

2019 yil yanvar- oktabr oylarida qurilish ishlari bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari tarkibi




Joriy davrda jami qurilish ishlaring katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **2021,5** mlrd. so`mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi **55,3 %**) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **157,6 %**ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlaring **24,1%**ni yoki **879,3** mlrd. so`mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **103,5 %**ni tashkil etdi.


Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan **753,0** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi **20,6 %**ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **142,3 %**ni tashkil etdi.

**Yanvar- oktabr oylarida qurilish ishlari bajaruvchi subyektlar
bo`yicha qurilish ishlarining o`sish sur`atlari, % da**



Qurilish ishlari hajmida hududlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo`yicha tarkibida Zangiota tumani, yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlari hajmi yanvar- oktabr oyida **492,4** mlrd.so’m yoki o’tgan yilga nisbatan **127,5 %**ga bajarildi.


Hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)




Qurilish ishlari hajmining eng past darajasi quyidagi hududlarda kuzatildi:

Quyichirchiq tumani (72,9 mlrd. so'm yoki 149,2 %), Bo'ka tumani(79,2 mlrd. so'm yoki 142,9 %) va Yangiyo'l shahri (82,1 mlrd. so'm yoki 128,4 %) qurilish-pudrat ishlari amalga oshirildi;

2019 yil yanvar-oktabr oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari hajmi o'sish sur'atlari % da



**2019 yilning yanvar- oktabr oylarida qurilish ishlari umumiy hajmida
hududlarning ulushi, % da**



Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlarining katta qismi Zangiota tumanida bajarilgan bo`lib, viloyatda bajarilgan jami qurilish ishlarining 13,5 %ini, Qibray tumanida 7,7 %ni va Yuqorichirchiq tumanida bajarilgan qurilish ishlari esa 7,0 %ni tashkil etdi.

Viloyatda amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi bo`yicha past ko`rsatkichlar: Quyichirchiq tumanida bu ko`rsatkich eng past 2,0 %ni tashkil etdi. Yangiyo'l shahri 2,2 %ni va Piskent tumanda 2,4 %dan tashkil etganligini kuzatishimiz mumkin.

Qurilish ishlari mavsumining boshlanishi bilan hududlarda bajariladigan qurilish ishlarining hajmi ortib, ularning viloyatdagi ulushi ham o`zgarib boradi.



Toshkent viloyat statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Nashr uchun mas'ul: B. Djavliyev
Aloqa telefoni: (71) 230-86-71